



IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA OMMA PSIXOLOGIYASI.

Ahadov Feruzbek Vafo o'g'li.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti.

Amaliy psixologiya 2 bosqich talabasi.

Anatatsiya : *Ushbu maqolada omma, omma g'oyalalar va ularni hurmat qilish. Ommaviy yig'ilishlar inson hayotidagi o'rni, ijtimoiy hodisalar va hozirgi zamon evolyutsiyasi, silvzatsiya jarayonidagi ozgarishlarning ommaviy fikrlash tarziga tasiri, ommaning kuchiga bo'lgan bugungi ishonch, omma kuchi keltirib chiqargan muhim oqibatlar, ommaning vayronkorlikka moilligi, ommani o'rganishning qonun chiqaruvchi va boshqaruvchilarga foydasi haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar : *Omma, ilm-fan, silvzatsiya, ong, ongsizlik, instinktiv, tarix, inqilob, global muammo, hissiyot, axliqiy tamoillar.*

Hozirgi global muammolar bilan to'la davrimizning muhim xususiyatlardan biri shundaki, bugun insoniyatning fikrlash tarsi o'zgarish jarayonini boshdan kechirmoqda hatto o'zgarib ham bo'ldi. Bu o'zgarishlar inson hayoting har jabhasini egallab chuqur ildiz otmoqda. Bu o'zgarishlarga sabab bo'layotgan ikkita asosiy omil mavjud. Birinchisi – silvzatsiya elementlarining ildizi hisoblangan diniy, siyosiy va ijtimoiy etiqodlarning yemirilishi; ikkinchi zamonaviy ilm-fan va sanoat inqilobi oqibatida yuzaga kelgan butunlay yangi sharoitlar va yangicha fikrlar tarzi bu asosiy sabablaridan hisoblanadi. Hozirgi davrda eski g'oyalarning deyrli ko'pi yo'qotilgan bo'lsa-da, ular hanuz juda katta mavqeyga va kuchga ega. Ularning o'rniga barpo etilgan yangi zamonaviy dunyonи qurishga intilgan g'oyalalar to'liq shakillanib insonlarning jamo tarzida ishlashlariga zamin yaratmoqda.

Hozirgi zamonaviy dunyoda omma kuchining ilg'or o'zgarib borishi avalliga ommaviy g'yalarining targ'ibotiga, so'ngra esa nazariy g'oyalarning amaliyotga ko'chishiga xizmat qiladi. Ilm-fan hozirgacha hech qanday muvaffaqiyatsizlaikka uchragan emas, qola versa hatto jahon urushlarida ham to'xtab qolgan emas. Ilm-fan bizga haqiqatni, eng kamida ongimiz qodir bo'lgan bilimni egallahni vada qildi. U bizga tinchlik yoki baxtni vada qilgan emas. Fan bizning hissiyotlarimizga nisbatan befarq, shikoyat qilsak, qulog'i kar. Ilm fan bilan yashashda bizga ancha kuch kerak chunki ilm-fan juda qudratli kuchga ega shu kuchni biz insonlar jilovlay olishimiz lozim, ilm-fan bilan birga yashamog'imiz lozim. Ilm-fan bilan yashashda bizga chidam kerak, chunki u barbod etgan illyuzalarni hech narsa qayta tiklay olmaydi.[1, 245]

Hozirgacha qadimgi silvzatsiyalar guvoh bo'lgan vayron qilish jarayoni xalq xalq zimmasida bo'lgani ayon. Lekin bugun buning guvohi bo'lmayapmiz. Trix guvohki, axloq tamoillariga tayangan silvzatsiyalar bu tamoillar o'z ta'sirini yo'qota boshlaydi. Silvzatsiya hech qachon omma(avom) tomonidan vujudga keltirilgan emas, u doim kichik intelektual qatlama tomonidan yaratilib kwilingan, boshqarilgan.[2, 512]

Omma faqat vayrinkor kuchga ega. Ommanning qonun-qoidalari doimo yovvoyilikka xos bo'lib kelgan. Silvzatsiya ma'lum qoidalari, tartib, instinkтив harakatlardan ongi harakatga o'tish kelajak to'g'risida qayg'urush va madaniyatning yuksak bosqichlarini o'z ichiga oladi- bularning bari ommaga tegishli bo'lib, ko'pincha buni ularning o'zлari anglamaydilar. O'zлarining vayronkor tabiatga monand ravishda omma tanani zaif yoki o'likka aylantiridagan mikroblarga o'xshab harakat qiladi.

Fakatlarga tayanadigan bo'lsak, dunyo boshqaruvchilari, imperiyalarning asoschilari, barcha e'tiqod da'vatchilari, kichik-kichik guruhlarning rahnamolari instinkтив holatdan omma xarakteridan xabordor bo'lган va ular o'zлari anglamagan holda kuchli psixologlar bo'lishgan. Ularning bu xususiyati ommani boshqarishda juda qo'l kelgan. Masaln qadim tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Napoleon o'z xalqining ongini juda aniqlik bilan fahmlagan, biroq o'zga halqlarni umuman noto'g'ri vaziyatlar ham uchrab turgan; u Ispaniya va Rossiyaga qisqa muddatda bosib olmoqchi bo'lib, buning o'rniga talofatlar ko'rgan.[3, 465]

Bizga hozirda omma psixologiyasini o'rganish muhimligi nimada? Yoki yetajchilar uchun ommami qanday boshqarish mumkinligini tushunish uchunmi? Yo'q, chunki bu juda mushkul vazifaga aylanib bormoqda. Omma yetakchilarini boshqarishga o'tmasligi uchun ham, yetakchilar omma psixikasini o'rganib chiqishlariga to'g'ri keladi. Omma psixologiyasiga nazar solib anglash mumkinki, omma harakatlarining juda oz qismi qonunlar va institutlar ta'sirida amalga oshiriladi, ommaviy g'oyalar esa agar to'la singdirilmagan bo'lsa, juda zaif bo'ladi.

Omma psixologiyasidan kelib chiqib boshqa ko'plab amaliy ishlarni ham bajarish mumkun. Omma xarakterini o'rganmoqchi bo'lган kishi tarixiy va iqtisodiy hodisalarga murojat qilishga to'g'ri keladi, bu siz iloji yo'q. Zamonaviy tarixchilardan biri bo'lган Ten Fransuz inqilobini juda noto'g'ri talqin qilgan edi. Buning sababi u hech qachon omma psixologiyasini o'rganib chiqmagan. U buning o'rniga o'rniga o'rganish uchun vosita sifatida tabiatshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan uslubni qo'llaydi. Biroq tabiatshunoslar o'rgangan yo'l orqali axloqiy tamoillarni tushunish ilojsiz. Tarixni shakillantiradigan asosiy omli esa ommaning mana shu axloqiy tamoillari hisoblanadi.[4, 129]

Amaliy juhatdan qaraydigan bo'lsak, omma psixologiyasini o'rganish juda muhim ekanligi ma'lum bo'ladi agar shunchaki qiziqish yuzasidan buni o'rganmoqchi bo'lsak ham, bu e'tiborga molik ish bo'ladi.

Aslida, muhokamamiz markazida turuvchi olomon haqida juda oz bilimga egamiz. Professional psixologlar ham doim olomonni nazrdan chetda qoldirib kelishgan. Juda kech bo'lganidan so'nggina, ular ommaga e'tibor qarata boshladi, lekin shunda ham bumga ommaviy jinoyatalar sabab bo'ladi. shubhasiz, jinoyatchi to'dalar mavjud, ammo samaimiy, qahramon sifat yoki umuman boshqacha xislatalargaega bo'lган olomon bilan ham hisoblashish, ularni o'rganish kerak. Ommaviy jihatdan omma psixologiyasining ma'lim juhatini tashkil etadi, xolos. Insonga baho faqatgina uning salbiy xislatalarini hisobga olaganimiz kabi, ommaning psixik holatini ham faqtagina jinoyatlar bilan o'lchamaslik kerak.[5, 216]

Bir qaraganda sezilmaydigan sabablardan biri- insonlarning fikirlash tarzidagi ulkan o'zgarishdir. O'zining keng qamrorovliligi yoki ko'p qon to'kkani ligi bilan mashhur bo'lgan inqiloblar haqiqiy tarixiy inqiloblar emas. Eng muhim inqiloblar silvizatsiyaning yangilanishi g'oya, tushuncha va e'tiqod shakllariga o'z ta'sirini o'tgazgan paytda sodir bo'ladi. Ommaviy fikrlash tarzi sezilmas o'zgarishlarga uchrab, sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin, bunday jarayonlar tarixning eng yodda qolarli hodisalarga kiradi. Biroq ommaning fikrlash tarzi o'ta qat'iy va o'zgarmas bo'lganligi tarixda bunday yirik hodisalr kamdan-kam uchrab turadi

Xulosa qilib aytganda inson harakatlariga nima turtki bo'lishini o'rganish xuddi biron o'simlikning xususiyatlarini aniqlab chiqish kabi qiziqarli hodisa. Bizning olomanni o'rganish uchun qiladigan tadqiqotlarimiz kichik bir tahliliy xulosaga olib kelish mumkin. Bundan ortiq narsa talab ham qilmaydi. Omma psixologiyasini o'rganish bizga hozirda jamiyat va inson o'rtaсидаги o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan. Omma psixologiyaisni o'rganish bizga shular uchun kerakligi ma'lum.

ADABIYOTLAR RO'YXAT.

1. Гидденс Э. Социология. — 2002.
2. Маерс Д. Социальная психология. — М.: Аллель, 2000
3. Маерс Д. Изучаем социальную психологию. — М.: 2009.
4. Мельникова Н.А. Шпаргалка по социальной психологии: ответы на экзаменационные билеты.— М.:Аллель. 2000.